

SHOHISTA GOFUROVA

K A M A L A K

SHE'RLAR



Toshkent
2014

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(5O)7

G'-69

G'ofurova, Shohista

Kamalak / Sh.G'ofurova. —Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. — 32 b.

ISBN 978-9943-27-294-1

Ushbu to'plam orqali siz yosh qalamkash Shohista G'ofurovaning sodda, quvnoq va samimiy tuyg'ulariga oshno bo'lasiz.

Vatan, mehr-muhabbat, beg'ubor bolalik mavzularida bitilgan bu she'riy mashqlar o'zining samimiyligi bilan sizga ham manzur bo'ladi, degan umiddamiz.

ISBN 978-9943-27-294-1

© Shohista G'ofurova, «Kamalak». «Yangi asr avlodi», 2014-yil.

Kitobxon.Com

KAMALAK JIOLARI

Shohista G'ulom qizi yosh, havaskor shoir. Ikki yildan buyon "Ilhom" ijodkorlar klubiga muntazam qatnashib keladi. Ilk kitobiga nom qo'yib, so'zboshi yozib berishimni iltimos qilgani bois, uning she'rlarini ko'zdan kechirar ekanman, "Kamalak" nomli she'ri diqqatimni tortdi:

*Yomg'ir to'xtab osmonga
Ranglar yoydi kamalak.
Go'yo chiqdi falakka
Atlas kiygan bir malak.*

Yosh ijodkor kamalak ranglarini atlas ranglariga qiyoslaydi, yangi tashbehlar izlaydi.

Shohistaning ilk kitobiga "Kamalak" deb nom berishni tavsiya qilar ekanman, uning she'rlaridagi kamalakning ranglari yanglig' xilma-xillikni, so'z aytishga, she'r yaratishga bolalarcha ishtiyoqni ko'rib quvondim.

She'riyatga havas — she'riyatga muhabbatga aylansin. She'riyatga muhabbat — she'riyatga sadoqatga aylansin. She'riyatga oshno bo'lgan yosh ko'ngilning satrlarida kamalak ranglari doim jilolanib tursin.

Oq yo'l senga, Shohista qizim!

*Nurali JALIL,
shoir.*

OSMONIM VATAN

Osmonda porlagan quyoshni ko'rsam,
Uni o'xshataman senga, Vatanim.
Cho'qqilari baland tog'larni ko'rsam,
Senga o'xshataman yurtim, chanimim.

O'zingsan osmonlar kabi bepayon,
Sen mening beg'ubor osmonim, Vatan.
Minglab yillargacha gullab-yashnagin,
Zavol ko'rma sira jahonim, Vatan!



O'ZBEKISTON

O'zbekiston guliston,
Lolajonlar yurti bu.
Bizlar kabi baxtiyor,
Bolajonlar yurti bu.

Dunyoda go'zal diyor,
Vatanim, jonim deyman.
Hamma yurtlardan a'lo,
O'zbekistonim deyman.

Biz yoshlarga mehribon,
Ahdi yor yurtim mening.
Kelajagi buyukdir,
Baxtiyor yurtim mening.



SHE'RIM

Maysazorda yalang oyoq yugurdim,
Men seni izladim chopib tog'lardan.
Qumri, bulbullarning ortidan chopdim,
Jo'r bo'lib izladim gulzor bog'lardan.

Chiqayotgan quyosh nuriga boqib,
Kamalak rangidan izladim seni.
Yulduz bo'lib ko'kda porlagan oning
Senga qo'lim cho'zib ko'zladim seni.

She'rim, sog'intirding, bugun kelmading,
Gul-u rayhonlarni sizlab yuribman.
Gullardan bol yiqqan asalariday
Bog'larda men seni izlab yuribman.





Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi <https://kitobxon.com/oz/asar/1847> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси <https://kitobxon.com/uz/asar/1847> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/1847>